



ILMIY-METODIK ELEKTRON JURNAL
НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ
SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL ELECTRONIC JOURNAL
Til va adabiyot.uz

Bosh muharrir

Bahodir JOVLIYEV

Tahrir hay'ati:

Dilshod Kenjayev
Nizomiddin Mahmudov
Yorqinjon Odilov
Jabbor Eshonqulov
Baxtiyor Daniyarov
Abdurahim Nosirov
To'lqin Saydaliyev
Baro Buranova
Zulxumor Mirzayeva
Qozoqboy Yo'ldoshev
Salima Jumayeva
Qayum Baymirov
Manzar Abdulxayrov
Alijon Safarov
Madina Nuriddinova
Latifa Xudayqulova
Baro Kadirova
Nargiza Mirzayeva

Axborot hamkorimiz:**Muharrirlar:**

Lutfullo JO'RAYEV
Bibimaryam RAXMONOVA
Oydin SHUXRATOVA

Sahifalovchilar:

Akmal FARMONOV
Gulnoza VALIYEVA

Tahririyat manzili:

100038, Toshkent shahri
Matbuotchilar ko'chasi 32-uy.
Telefon: (98) 121-74-16,
(71) 233-03-10, (71) 233-03-45, (71) 233-03-67.
e-mail: til_adabiyot@umail.uz
web-sayt: www.tilvaadabiyot.uz

M U N D A R I J A**TADQIQOT**

| | |
|---|----|
| Gulbahor Ashurova. Alisher Navoiy – estetik ideal shaxs timsoli | 3 |
| Sohiba Karimova. Shodmon Sulaymon nasrida tibbiy obrazlar | 5 |
| Atamuradov Sherzod. O'zbek va turk tillariga oid noverbal vositalarni ifoda etishdagi pragmatik to'siq | 7 |
| Shermamatova Shohista. Jahonotin Uvaysiyning «Ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi» radifli g'azalining darsliklardagi talqinlariga oid | 9 |
| Muyassar Saparniyazova. Neyming va ergonomika munosabati adabiy parallel janrining tasnifi | 11 |
| Teshayeva Gulnoza. Adabiy parallel janrining tasnifi | 12 |
| Jamoliddin Nurmuhammadov. Adabiy laboratoriyalarda "Book trailer" – kitob haqida hikoya qiluvchi qisqa videorolik tayyorlash amaliyoti | 14 |
| Komila Komiljonova. Erkin Vohidov devonida ishq-muhabbat mavzusi | 17 |
| Новваль Рузметова. Особенности применения игровых методов в образовательном процессе юридических техникумов | 19 |
| Go'zal Ismailova. Mustaqil ta'lif olishda integratsion metodlarni takomillashtirish | 22 |
| Xolida Mirzayeva. Xalq ta'limi xodimlarining kommunikativ kompetensiyasini takomillashtirish – pedagogik muammo sifatida | 24 |
| Maxfuza Abdialimova. Adabiy tafakkur yangilanishining falsafiy-estetik asoslari | 26 |
| Latofat Mirzajonova. O'zbek tilshunosligida fe'l semantikasi tadqiqi .. | 27 |
| Nodir Rahmatullayev. Mifopoetik lisoniy xotiraga doir ayrim mulohazalar | 30 |
| Yodgorbek Xudayberganov. Komil Avazning "Ogahiy" dramasida Feruz siymosi | 31 |
| Matnazar Abdulhakim ijodida Shekspirona mahorat | 33 |
| Nigoraxon Ro'zibayeva. Qarama-qarshi ma'noli til va nutq birliklari | 35 |
| Yodgorbek Xudayberganov. Sa'dulla Siyoyevning "Avaz" romanida Avaz O'tar obrazi talqini | 37 |
| Marjona Tilovova. Chet tillarni o'qitishda loyiha metodining ahamiyati va dolzarbli | 39 |
| Intizor Jumaniyazova. Mumtoz asarlarni o'qitishda interfaol usullardan foydalanish | 42 |
| Bobir Sulaymonov. "O'zbek tilining izohli lug'ati"da ko'p ma'noli so'zlar talqini | 45 |
| Zuhra Maxmudova. Lexical-semantic study of the verbs "Yig'i" in english and uzbek languages | 47 |

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayasatining 2023-yil 3-iyundagi 338/6-sonli qarori bilan Filologiya hamda Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari (PhD, DSc) asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrdr. <https://oak.uz/pages/4802>

Ergonimlar korxona, tashkilot, firma, tadbirkorlik faoliyati obyektlari, iste'mol tovarlarini shunchaki nomlash vazifasini bajarmaydi, balki faoliyat turidan ko'zlangan maqsad, ishlab chiqarilgan mahsulotning tabiiy xususiyati haqida birlamchi ma'lumotlarni ham tashiydi.

Ergonimlar korxona, tashkilotlar o'tasida, tadbirkor, uning mahsuloti va iste'molchi o'tasida kommunikativ aloqa o'matish vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, iste'molchiga hissiy ta'sir ko'rsatish, uni o'ziga jalb qilish vazifasini bajaradi.

Ergonimlar korxona, tashkilot, firma, tadbirkorlik faoliyati obyektlariga, iste'mol tovarlari hamda faoliyat egalariga, ular ishlab chiqargan tovarlarga berilgan baho hisoblanadi.

V.S.Yelistratov, P.A. Pimenovlarning fikricha, tilshunoslikda qo'llanilayotgan *neym* va *ergonim* terminlari asosida neyming va ergonimika fanlari o'tasiga shartli tenglik belgisini qo'yish mumkin. Ergonimlar neyming sohasida yaratiladigan birliklardan farqli tarzda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'nnaviy-ma'rifiy sohalarda faoliyat yurituvchi turli obyektlar, ishlab chiqarilgan mahsulotlar nomini anglatadi. Ergonimlarning nomlanayotgan obyektni dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishini ta'minlashi, tijoriy maqsadlar uchun xizmat qilishi har doim ham shart emas. Mana shu nuqtada neyming sohasida yaratilgan nomlar va ergonimika birliklari bir-biridan ajraladi. Ergonimlar neyming sohasida yaratilgan birliklarni ham qamrab oladi. *Neyming sohasida neym, onomastikada esa ergonim terminlari qo'llaniladi.*

Anglashiladiki, ergonimlarni o'rganuvchi ergonimika va marketologiyaning neyming sohasida o'zaro aloqadorlik mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bu haqida qarang: Лутфуллаева Д., Сапарниязова М. Ўзбек тилида ном яратишнинг лингвистик асослари // Илим сарчашмалари. –Урганч, 2019. – №11. – Б.55.
2. Земскова С.В. Лексико-семантический и словообразовательный анализ эргонимов г. Тольятти Самарской области Российской Федерации: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М.: РУДН, 1996; Беспалова А.В. Принципы и способы номинации в английской эргонимии // Номинация в ономастике. – Свердловск: Изд-во УрГУ, 1991; Голомидова М.В. Искусственная номинация в русской ономастике: Дисс. ... д-ра филол. наук. – Екатеринбург: УрГУ, 1998.
3. Теоретические аспекты нейминга // <https://mylektsii.ru/6-11117.html>
4. Елистратов В.С., Пименов П.А. Нейминг: искусство называть. – М.: Омега-Л, 2014. – С.111.
5. Lutfullaeva D., Saparniyazova M. The Main Directions of Naming Model // International Journal of Social Science And Human Research. – USA, 2021. – №4. – P.385-388. (Impact Factor: 5.60). <https://ijsshr.in/v4i3/Doc/19.pdf>

Gulnoza Teshayeva,

Buxoro davlat universiteti

Adabiyotshunoslik (o'zbek adabiyoti) mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

ADABIY PARALLEL JANRINING TASNIFI

Annotatsiya. Adabiy tanqidning mustaqil janri bo'lgan adabiy parallel adabiyotni rivojlantirishda, adabiy jarayonni faollashtirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu maqolada adabiy parallel janri ilk bor ilmiy jihatdan tasnif qilingan, uning ichki turlari aniqlangan.

Kalit so'zlar: janr tasnifi, tarixiy-biografik adabiy parallel, ilmiy-nazariy adabiy parallel, ijodkor biografiyasi, biografik metod, adabiy oqim, yo'naliishlar, adabiy jarayonlar.

Annotation. Literary parallel, as an independent genre of literary criticism, has great importance in the development of literature, the activation of the literary process. In this article, for the first time, a literary parallel genre is scientifically classified, its internal types are determined.

Keywords: genre classification, historical and biographical literary parallel, scientific and theoretical literary parallel, biography of the creator, biographical method, literary current, trends, literary processes.

Аннотация: Литературная параллель, являясь самостоятельным жанром литературной критики, имеет большое значение в развитии литературы, активизации литературного процесса. В этой статье впервые научно классифицирован литературный параллельный жанр, определены его внутренние виды.

Ключевые слова: жанровая классификация, историко-биографическая литературная параллель, научно-теоретическая литературная параллель, биография создателя, биографический метод, литературное течение, направления, литературные процессы.

Jahon adabiyotshunosligida adabiy tanqidchilik janrlari alohida bir tizim sifatida adabiy jarayonda, adabiyot taraqqiyotida muhim o'rinn tutadi, jumladan, o'zbek adabiy tanqidchiligidagi ham. Rus adabiyotshunosligida adabiy tanqid janrlari muammosini birinchi bo'lib o'rgangan L.P. Grossman ularni uch xil tasnif qilgan edi. Uchinchi

tasnifda obyektni qamrab olish kengligi va darajasi bo'yicha adabiy portret, obzor, taqriz, parallel, monografiya kabi janrlar kiritilgan¹. Adabiy parallel obyektni qamrab olish kengligi bo'yicha qator imkoniyatlarga ega. Janrning imkoniyatlarini aniq chegaralab, belgilab qo'yish uning imkoniyatlarini, qirralarini ma'lum darajada cheklab qo'yadi va janr xususiyatlarini, mohiyatini to'la ochishga to'sqinlik qiladi. Ayni damda, adabiy parallelning ham puxta va tugal ilmiy nazariyasini ishlab chiqish, birinchi navbatda juda qiyin, ikkinchidan janrning o'ziga xos xususiyatlarini to'liq ravishda namoyon qila olmasligi mumkin. Negaki, adabiyotshunoslikdan farqli ravishda tanqidda munaqqidning uslubi aniqroq ko'rindi. Respublikamiz adabiyotshunosligi ilmi tarixida dastlabki mufassil nashr bo'lmish "Adabiyot nazariyasi"ning II tomida: "shuni doimo esda tutish kerakki, hech bir jins va janr adabiy ijodda sof holda uchramaydi. Jinslar va janrlarning ma'lum darajada aralashganligi, qorishiqligi adabiy ijodning xarakterli xususiyatidir"², deya qayd etilgan. Shu nuqtayi nazardan, adabiy parallel janrini ham tasnif qilish shartli amalga oshirildi.

O'zbek adabiy tanqidchiligidagi yaratilgan adabiy parallelarni xarakteri va mazmun-mohiyatiga ko'ra quyidagicha tasnif qilish mumkin:

Tarixiy-biografik adabiy parallel.

Ilmiy-nazariy adabiy parallel.

Tarixiy-biografik yondashuv adabiy tanqidchilikda ko'p foydalaniladigan yo'nalishlardan hisoblanib, bunda ijodkorning biografiyasi, yaratgan asarlarini yozuvchi yashagan zamon va sharoit bilan uyg'unlikda tasvirlash vazifasi tanqidchi oldida turadi. Mazkur yondashuv XIX asrdan boshlab G'arb tanqidchiligidagi qo'llana boshlandi. Sh. Sent-Byov, A. Veselovskiy, A. Morua, G. Vinokur, B. Kedrov, M. Yaroshevskiy kabi olimlar faoliyatlarida mazkur yondashuvni keng qo'llaganlar. Tarixiy-biografik yondashuvda ijod jarayonini alohida yo'sinda tahlil etiluvchi barcha tadqiqotlarda yozuvchi hayotini tasvirlaydi. Sh. Sent-Byov yozadi: "Adabiy tanqid sohasida va adabiyot tarixida buyuk odamlar biografiyasi kabi yurakka yaqin, go'zalroq, ibratliroq narsa kamdan-kam uchraydi"³. Uning ta'kidlashicha, biografiya muallif hayot yo'lining shunchaki bayoni emas. Haqiqiy biografik tadqiqot yuzaga kelishi uchun tadqiqotchi ijodkor "ruhiyatiga kirishi", "uni turli qirralarini ko'rsata bilishi, bu insonni harakat qilishiga, gapirishga, nafas olishiga majbur etishi", "eng muhimi, uni oila davrasida, o'ziga xos odatlari bilan tasavvur eta olishi lozim, negaki, buyuk odamlar ham oddiy odamlar singari mayda-chuyda tashvishlardan xoli bo'lmaydilar"⁴. Tarixiy-biografik usulda ijodkor hayot yo'liga munosabat ko'lami muhim rol o'ynaydi.

Tarixiy-biografik adabiy parallel janrida qiyoslanuvchi obyekt sifatida ijodkor biografiyasi turadi. Ammo bunda ijodkor biografiyasidan faqat axborot berish sifatida foydalanmaydi, balki ijodkor biografiyasidan asarlarning mazmun-mohiyatini to'liqroq ochishga harakat qiladi. Shuningdek, ijodkor hayoti va faoliyatini atroficha qamrab olishga qaratiladi. Biografik adabiy parallel namunasi sifatida qadimgi yunon faylasufi va yozuvchisi Plutarxning "Qiyosiy hayotnomalar" tarixiy-biografik asarini keltirish mumkin. Mazkur asarda mashhur yunon, rimlik davlat va siyosiy arboblar, notiq va ijodkorlarning hayot yo'li, xulq-atvori, turmush tarzi qiyosiy usulda yoritilgan. Bizgacha 46 muvoziy va 4 alohida hayotnomma yetib kelgan.

Bundan tashqari, adabiyotshunos Muhammadjon Xolbekovning "Shekspir va Marlo" maqolasida⁵ ikki buyuk ingliz dramaturglarining hayot va ijod yo'llari qiyosiy hamda biografik metod orqali tahlil qilingan. Yana bir jihat, bu xildagi adabiy parallelarda biografik metoddan keng foydalanishidir.

Olim Qaydibek Seydanovning "Navoiy va Abay"⁶ maqolasida ham ikki ijodkor shaxsiyatiga oid mushtarak jihatlar tahlil qilinadi. Xususan, ikkala ijodkorning ham davlat lavozimida ishlagani, o'z faoliyati davomidaadolat, xalq g'amini yeishi va bularning ular she'riyatida aks etishi, axloqiy-didaktik qarashlaridagi mushtaraklik tahlil qilingan. Navoiyning hokim sifatida Astrobodni obod qilish, xalq ahvolini yaxshilash borasidagi sa'y-harakatlari va Abayning Semipalatinsk o'lkasida yashovchi qozoqlar uchun 60 moddadan iborat qonun loyihasini tuzib xalq orasida joriy qilishi misol sifatida keltiriladi. Abayning "Saddi Iskandariy" dostoni asosida "Iskandar" dostonini yozishi ham adabiy ta'sir natijasidir. Ammo ikkala dostonning ham bir qancha farqli o'rinnari borligi misollar orqali tahlil qilingan. Ushbu maqolaning o'ziga xos xususiyati shundaki, ikki ijodkor hayoti va ijodining farqli tomonlari mushtarak jihatlari bilan qorishib ketgan. Biroq "Navoiy va Abay" maqolasini adabiy parallel sifatida tahlil qilish mumkin.

Ilmiy-nazariy adabiy parallelarda ilmiy tahlil, o'rganilayotgan adabiyot namunalariga adabiyotning nazariy qonun-qoidalari nuqtayi nazardan yondashish, ilmiy-nazariy umumlashmalar chiqarish xususiyatlari yaqqol ko'zga tashlanadi, adabiy jarayonning muayyan qismi, adiblar faoliyati, milliy yoki jahoniy adabiyot taraqqiyoti, uning ma'lum tadriji bosqichlarini ilmiy-estetik masalalar doirasida o'rganadi, zarur xulosalar chiqarib, muammoni yechish usullari ishlab chiqiladi yoxud yechimga olib boruvchi yo'l tanlanadi. To'g'ri, adabiy parallelning barcha turlarida ham ilmiy-nazariy tahlil va umumlashmalar chiqarish xususiyati yetakchi o'rinn tutadi, ammo biografik adabiy parallelarda, asosan, ijodkor hayot yo'liga katta e'tibor qaratiladi, adabiy tur va janrlar tahliliga bag'ishlangan adabiy parallelarda esa janrlar tadriji asosida ilmiy-nazariy xulosalar chiqariladi.

O'z navbatida, ilmiy-nazariy adabiy parallel janri o'rganish obyekti sifatida quyidagilarni qamrab olishi mumkin:

1. Ijodiy metod, adabiy oqim, yo'nalishlar, adabiy jarayonlar.

2.Adabiy tur va janrlar.

3.Adib uslubi, g'oyalari.

O'zbek adabiyotshunosligida adabiy parallel janrini ilmiy jihatdan tadqiq etish adabiy tanqid bilan bir qatorda qiyosiy adabiyotshunoslik sohasining ham rivojida muhim ahamiyatga ega. Adabiy - tanqidiy janrlarning barchasi kabi adabiy parallelda ham ilmiy muammoni keng va ishonarli yoritilishi, munaqqidning individual qarashi va uslubi, jahon adabiyotshunosligidagi yangi nazariyalardan voqifligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yuqoridaq tasnifdan adabiy jarayonda janrning turli ichki xillari rivoj topayotganligi yaqqol ko'rindi. Demak, parallel ham adabiyot rivojida boshqa janrlar singari muhim o'rinni tutadi, uni monografik yo'sinda tadqiq etish muhim vazifalardan biri bo'lib qoladi.

¹Егоров Б. О мастерстве литературной критики: жанры, композиция, стиль. – Ленинград : Сов. Писатель, Ленинградское отд-ние, 1980. – С.-14.

²Адабиёт назарияси. Икки томлик. II том. – Ташкент: Фан, 1979. –Б.-306.

³Адабий танқид: бугун ва эртага (давра сұхбати) (2015) - www.ziyouz.uz

⁴<https://fayllar.org/oquv-ishlari-boyicha-prorektor-a-soleyev---2021-yil-v2.html?page=15>

⁵Холбеков М. Шекспир ва Марло.//Шарқ юлдузи,2008,1- сон.

⁶Сейданов Қ.Навоий ва Абай. //Шарқ юлдузи,2015,8- сон.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Адабиёт назарияси. Икки томлик. II том. – Ташкент: Фан, 1979. 306-bet.
2. Адабий танқид: бугун ва эртага (давра сұхбати) (2015) - www.ziyouz.uz.
3. Давлатов О. "Мис отлиқ"дан "Жез отлиқ"қача.//Шарқ юлдузи,2014,1- сон.
4. Егоров Б. О мастерстве литературной критики: жанры, композиция, стиль. – Ленинград: Сов. Писатель, Ленинградское отд-ние, 1980.
5. Холбеков М. Шекспир ва Марло.//Шарқ юлдузи,2008,1- сон.
6. Сейданов Қ.Навоий ва Абай. //Шарқ юлдузи,2015,8- сон.
7. Mamadaliyeva Z. Navoiy va Sofokl// Jahon adabiyoti,2014, 2-son.
8. O'zbek sovet adabiy tanqidi tarixi. Ikti tomlik. 1- va 2- tom. – Toshkent: Fan, 1987. – 2-tom.

Jamoliddin Nurmuhhammadov,

MMTV huzuridagi Ixtisoslashtirilgan ta'lif muassasalari agentligi bosh mutaxassisasi,
ToshDO'TAU erkin tadqiqotchisi

ADABIY LABORATORIYALARDA "BOOK TRAILER" – KITOB HAQIDA HIKOYA QILUVCHI QISQA VIDEOROLIK TAYYORLASH AMALIYOTI

Annotatsiya: Maqolada 10–11-sinflar o'quvchilarining ijodiy-intellektual imkoniyatlarini oshirishda adabiy laboratoriyalarda kitob haqida hikoya qiluvchi qisqa videorolik tayyorlash amaliyoti xususida so'z boradi. "Book trailer", ya'ni kitob treylerini yaratish uchun amalga oshiriladigan ishlar qadamma qadam keltirib o'tilgan. Kitob treylerlari uchun asosiy talablar ko'rsatib o'tilgan.

Kalit so'zlar: adabiy laboratoriya, 10-11-sinf, book trailer, kitob treyleri, videorolik, fragment, illyustratsiya, so'rovnoma, Google forma, Quizes dasturi.

Annotation: The article talks about the practice of making a short video about a book in literary laboratories to increase the creative-intellectual capabilities of 10-11 graders. The steps to be taken to create a "book trailer" are described step by step. The main requirements for book trailers are indicated.

Keywords: literary laboratory, 10-11th grade, book trailer, book trailer, video clip, fragment, illustration, questionnaire, Google form, Quizes program.

"Ta'lif to'g'risida"gi Qonunning 9-moddasiga ko'ra, 10-11-sinflar umumiyligi o'rta ta'lif (I — XI sinflar) ning "o'rta ta'lif" bosqichiga to'g'ri keladi.

O'rta ta'lif o'quv dasturiga muvofiq ta'lif oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nigmalar o'zlashtirilishini, shuningdek ta'lifning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini ta'minlaydi¹.

Milliy o'quv dasturiga ko'ra 10-11-sinflar izchil kurs sifatida tashkil qilinishi ko'zda tutilgan bo'lib, darsliklarda "badiiy asarlar davrlar bo'yicha, xronologik tartibda joylashtirildi. Bunda har bir davr uchun obzor (o'rganilayotgan